

tayyorlash zarur bo‘ladi. Biroq to‘g‘ri siyosiy yondashuv, davlat qo‘llab-quvvatlashi va xalqaro hamkorlik orqali bu muammolarni yengib o‘tish mumkin.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotga o‘tish - bu faqat ekologik muammolarni emas, balki kambag‘allik, ishsizlik, gender tengsizligi kabi ijtimoiy muammolarni ham hal qilishga xizmat qiluvchi kompleks yondashuvdir. Ijtimoiy tadbirkorlik esa bu yo‘ldagi eng muhim vositalardan biri bo‘lib, inson salohiyatini faollashtirish va barqaror kelajak qurish imkonini beradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish - nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham foydalidir. U kambag‘allikka qarshi kurashda kuchli vosita bo‘lib, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun puxta rejallashtirish, davlat va jamiyat o‘rtasida hamkorlik, va ta’lim tizimini yangi sharoitlarga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. UNEP (UN Environment Programme). *Towards a Green Economy*. 2011
2. Stern, N. *Stern Review on the Economics of Climate Change*. 2006
3. Yunus, M. *Creating a World Without Poverty*. 2007
4. Costanza, R. et al. *The value of the world's ecosystem services and natural capital*. 1997
5. Elkington, J. *Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business*. 1997

YASHIL IQTISODIYOTDA XUSUSIY SEKTOR VA DAVLATNING ROLI

Haqnazarova Muqaddas Fazlidin qizi²⁰⁹

Annotatsiya: O‘zbekistonda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni taminlashda muhim omillardan biri bu mamlakatimiz iqtisodiyoti va eksporti tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo‘silgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini jadal sur‘atlarda oshirishga qaratilgan hisoblanadi. iqtisodiyotni yanada yuksaltirish Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosi to‘g‘risida gap ketadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, xususiy sektor, ekologiya, tabiiy resurslar, energiya tejamkorligi.

²⁰⁹ Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Abstract: One of the important factors in ensuring long-term sustainable development in Uzbekistan is the rapid increase in the share of highly processed, high-value-added finished products in the structure of our country's economy and exports. further improving the economy This article discusses the green economy as the basis for sustainable economic development.

Key words: green economy, economic growth, private sector, ecology, natural resources, energy efficiency.

Аннотация: Одним из важных факторов обеспечения долгосрочного устойчивого развития Узбекистана является стремительное увеличение доли готовой продукции с высокой степенью переработки и добавленной стоимостью в структуре экономики и экспорта нашей страны. дальнейшее совершенствование экономики В данной статье рассматривается зеленая экономика как основа устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономический рост, частный сектор, экология, природные ресурсы, энергоэффективность.

Yashil iqtisodiyotda xususiy sektor va davlatning roli yanada chuqurroq va kompleksdir. Ularning har biri o‘zining aniq vazifalarini bajaradi, lekin bu vazifalar bir-birini to‘ldiradi va samarali hamkorlikni talab qiladi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdir. Keling, har bir sektoring roli batafsil ko‘rib chiqaylik.

1. Xususiy sektoring roli. Xususiy sektor yashil iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir, chunki u innovatsiyalarni ishlab chiqishda va iqtisodiy faoliyatni ekologik jihatdan barqaror tarzda tashkil etishda katta rol o‘ynaydi. Xususiy sektor o‘zining bozordagi faoliyati orqali quyidagi jihatlarda o‘z hissasini qo‘sadi¹:

Xususiy sektor yashil texnologiyalarni ishlab chiqishda asosiy yetakchi hisoblanadi. Yashil energiya (quyosh, shamol, geotermal energiya), energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekotizimlarni saqlash va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarida texnologik yutuqlar xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladi.

Quyosh energiyasi va shamol energiyasi texnologiyalari: Quyosh panellari, shamol turbinalari va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish.



Yashil qurilish va energiya samaradorligi: Energiya tejovchi qurilish materiallari va texnologiyalarini ishlab chiqarish va foydalanish.

Xususiy sektor resurslarni samarali va barqaror foydalanishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish tizimlarini optimallashtiradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va ekologik zararsiz materiallar ishlatalish. Yashil marketing, ekologik mahsulotlar va xizmatlarni targ'ib qilish ham xususiy sektorning barqaror rivojlanishdagi roli hisoblanadi.

Xususiy sektor ekologik investitsiyalarni jalb etish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yashil obligatsiyalar, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun sarmoya kiritish va ekologik dasturlarni qo'llab-quvvatlash xususiy sektorning moliyaviy ko'magini tashkil etadi. Masalan, "yashil obligatsiyalar" orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish.

Xususiy sektor, ayniqsa kompaniyalar, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talabni yaratishda katta rol o'ynaydi. Yashil bozorlar, qayta tiklanuvchi energiya tizimlari, ekologik turizm kabi sohalar o'sishda davom etadi. Xususiy sektorning bu boradagi faoliyati, iste'molchilarni ekologik xabardor qilish va yashil mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirishga qaratilgan.

2. Davlatning roli. Davlat yashil iqtisodiyotda asosiy tartibga soluvchi, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi vazifani bajaradi. Davlatning roli, asosan, quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Davlat yashil iqtisodiyotning asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejash va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarus qonun va qoidalarga asos soladi. Karbon ifloslanishini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va uglerod chiqarish stavkalarini amaytirish uchun qonunlar qabul qilish. Ekologik ta'sirni baholash va ekologik sertifikatlash tizimlarini joriy etish.

Davlat yashil texnologiyalarni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni joriy etadi. Bu xususiy sektorni ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishga va joriy etishga undaydi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari uchun davlatdan subsidiyalar olish yoki soliq imtiyozlari taqdim etish.



Davlat yashil iqtisodiyotning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun infratuzilma yaratadi. Davlat ekologik loyihalar uchun moliyaviy resurslar taqdim etadi, shuningdek, yashil obligatsiyalar orqali kapital jalb qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, davlat barqaror moliyaviy tizimlar yaratish va moliyaviy bozorlarni qo‘llab-quvvatlashda ham ishtirok etadi.

Davlat yashil iqtisodiyotning ahamiyati haqida keng ommani xabardor qiladi va ta’lim tizimlarida ekologik ta’limni rivojlantiradi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun ekologik siyosatlar va tamoyillarni aholi o’rtasida targ‘ib qilish.

Davlatlar o’rtasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ham davlatning asosiy roli hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlarida xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar o’rtasida siyosiy va moliyaviy ko‘makni ta’minlash.²

13. **Xususiy sektor va davlat o’rtasidagi hamkorlik.** Xususiy sektor va davlat o’rtasidagi hamkorlik yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlashda juda muhimdir. Ular birgalikda innovatsiyalarni rivojlantirish, barqaror infratuzilma yaratish va yashil bozorlarni shakllantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlashadi: Innovatsiya va texnologiya transferi: Xususiy sektor tomonidan ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar davlat tomonidan keng miqyosda joriy etilishi mumkin. Davlat, o‘z navbatida, texnologiya transferi va ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Barqaror investitsiyalar: Xususiy sektor tomonidan jalb etilgan investitsiyalar, davlat tomonidan yaratilgan barqaror siyosatlar va infratuzilma yordamida kengaytiriladi. Siyosiy va iqtisodiy rag‘batlantirish: Davlatning rag‘batlantiruvchi siyosatlari xususiy sektorni ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va barqaror amaliyotlarga o’tishga undaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, yashil iqtisodiyotda xususiy sektor va davlatning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Xususiy sektor innovatsion yondashuvlar va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan, davlat esa bu jarayonlarni tartibga solish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishda ishtirok etadi.

Ikkala sektorning bиргаликдаги harakati yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatlari rivojlanishini ta‘minlash uchun zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mo‘minov A. «Iqtisodiy o‘sish va uning omillari nimalardan iborat» O‘zbekiston ovozi. 2020-yil 20-may.
2. Barqaror iqtisodiy o‘sish va uni ta‘minlash bosqichlarining tahlili, ‘Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar’ ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2020-yil 513
3. Yashil iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning nazariy va amaliy jihatlari, XXI asr: fan va ta‘lim ilmiy elektron jurnali. №2, 2017.

ЎРТА ДАРОМАД ТУЗОГИ: ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИНГ СЕКИНЛАШИШ САБАБЛАРИ НИМАДА?

Шарипов Жамиид²¹⁰

Жаҳон банки томонидан ўрта даромадли (яъни, аҳоли жон бошига ЯИМ ҳажми 1 136 доллардан 13 845 долларгача ташкил этган) мамлакатларнинг имкониятлари ва муаммолари атрофлича таҳлил қилинган «World Development Report 2024: The Middle-Income Trap» (WDR 2024) номли навбатдаги ҳисобот чоп этилди²¹¹.

Ушбу ҳисоботга кўра, 108 та давлатда, жумладан Ўзбекистонда киши бошига ЯИМ ҳажми АҚШ ўртacha кўрсаткичининг 10 фоизидан ёки тахминан 8 000 доллардан паст даражада сақланиб қолса, улар «ўрта даромад тузоги»га тушиб қолиш хавфи остида бўлиши қайд этилган.

Даромади ўртачадан паст бўлган давлатлар тоифасига кирувчи Ўзбекистон учун (2023 йилда аҳоли жон бошига ЯИМ тахминан 2 849 АҚШ долларни ташкил этган²¹²) бу муаммо – глобал муаммолар, айниқса иқлим ўзгариши, протекционизмнинг кучайиши ва демографик ўзгаришлар шароитида долзарб бўлиб қолмоқда.

«Ўртacha даромад тузоги» – бу тушунча илк марта Жаҳон банки томонидан 2007 йилда An East Asian Renaissance ҳисоботига киритилган бўлиб, у мамлакатлар ўртacha даромад даражасига етиб, иқтисодий ўсишнинг секинлашишига дуч келган ва юқори даромадли мамлакатлар мақомига ўта олмаган вазиятни намоён этади.

²¹⁰ «Тараққиёт стратегияси» маркази бўлими бошлиги

²¹¹ <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2024>

²¹² <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD?locations=UZ>